Navoiy to’g’risidagi biografik asar

G’iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar») asari buyuk o’zbek shoiri va mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning hayoti hamda adabiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati to’g’risidagi qimmatli manba hisoblanadi. «Makorim ul-axloq» asarining ilmiy-izohli to’liq tarjimasi mustaqillik davrida asarning turli nusxalarini o’zaro solishtirish asosida O’zR FA Sharqshunoslik instituti tomonidan ilk bora amalga oshirildi.

Tarjimaning tadqiqot qismida Xondamirning hayoti va ijodi, asarning qo’lyozma nusxalari va uning nashri to’g’risida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Xondamirning ushbu asari Alisher Navoiyning sermahsul adabiy va ilmiy faoliyati bilan birgalikda, uning mamlakat siyosiy barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’atning taraqqiyotiga qo’shgan ulkan hissasi to’g’risida hikoya qiladi. Shuningdek, «Makorim ul-axloq» ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiyning go’zal xulqlari va yuksak insoniy fazilatlari to’g’risidagi ma’lumotlar bilan bezatilgan biografik asardir. Unda shoirning tug’ilishidan vafotiga qadar bo’lgan sermazmun hayoti go’zal uslubda bayon etilgan.

Qisqacha qilib aytganda, «Makorim ul-axloq» buyuk shoir va olim Navoiyning yirik davlat va jamoat arbobi hamda ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi shaxsiyatini bor bo’yi bilan ko’rsatib beradigan muhim manbadir. Xondamir o’zining debocha, muqaddima, o’n maqsad (bob), xotima hamda Navoiyning qanday vafot etganligi to’g’risidagi bobdan iborat bo’lgan ushbu asarida asosiy diqqat-e’tiborni uning donishmandligi va yuksak zakovati, olimlik, shoirlik va yozuvchilik borasidagi iste’dodlari hamda rahmdillik, saxiylik va xokisorlik kabi go’zal xulqlari va olijanob xislatlariga qaratish bilan birgalikda, ushbu buyuk shaxs hayotida uning bolalik chog’laridan tortib umrining oxirigacha bo’lgan davrda yuz bergan muhim voqealarni ham imkoni boricha qamrab olishga harakat qilgan.